

12-10-2019

## FORM AND CONTENT IN COMPLEX SENTENCES

Nargiza Shikhnazarovna Akhmedova

*Associate Professor of Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

---

### Recommended Citation

Akhmedova, Nargiza Shikhnazarovna (2019) "FORM AND CONTENT IN COMPLEX SENTENCES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 12 , Article 28.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss12/28>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [sh.erkinov@edu.uz](mailto:sh.erkinov@edu.uz).

---

## FORM AND CONTENT IN COMPLEX SENTENCES

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

ISSN:2181-0427

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



**2019 йил 12 сон**

## **QO'SHMA GAPLARDA SHAKL VA MAZMUN**

Ahmedova Nargiza Shixnazarovna,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ergashgan qo'shma gaplarda mo'tadillashuv hodisasi, ortiqchalik va tejankorlik tamoyili asosida mo'tadillashuvning yuzaga kelishi kabi masalalar keng tahlil qilingan. Undan tashqari, maqolada qo'shma gaplarda yuzaga keladigan shakl va mazmun asimmetriyasiga ham e'tibor qaratiladi.*

***Kalit so'zlar:** mo'tadillashuv, propozitsiya, qo'shma gap, sodda gap, modus, asimmetriya.*

## **ФОРМА И СОДЕРЖАНИЕ В СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЯХ**

Ахмедова Наргиза Шихназаровна,  
доцент Ташкентского государственного  
университета узбекского языка и  
литературы имени Алишера Навои

***Аннотация.** В этой статье подробно обсуждаются такие темы, как событие нейтрализации в сложноподчинённых предложениях, формирования нейтрализации в основе принципа превышения и экономии. Кроме того, в этой статье также обсуждается существование асимметрии формы и содержания в сложноподчинённых предложениях.*

***Ключевые слова:** нейтрализация, пропозиция, сложное предложение, простое предложение, модус, асимметрия.*

## **FORM AND CONTENT IN COMPLEX SENTENCES**

Akhmedova Nargiza Shikhnazarovna,  
Associate Professor of Tashkent State University  
of the Uzbek Language and Literature named  
after Alisher Navoi

***Abstract.** In this article topics like neutralisation event in complex-compound sentence types, excessive and condensing principles as causes for formation of neutralisation are discussed in detail. Additionally, this article also discusses existence of form and meaning asymmetry in complex-compound sentences.*

***Key words:** neutralisation, proposition, complex sentence, simple sentence, modus, asymmetry.*

Sistem tilshunoslikdagi asosiy tushunchalardan biri lisoniy birliklar orasidagi zidlanish hodisasidir. Ma'lumki, til sistemasida muayyan ziddiyatda bo'lgan ikki lisoniy birlik nutq jarayonida ma'lum sharoitda zidlanishga asos bo'lgan belgilarini yo'qotib, bir xil bo'lib qolishi mumkin. Ma'lum nutqiy sharoitda ikki lisoniy birlikning zidlanish belgilarining yo'qolishi mo'tadillashuv (neytralizatsiya) sanaladi.

Mo'tadillashuv tushunchasi dastlab faqat fonologik sath birliklari uchun qo'llanilgan. Keyinchalik tilning boshqa sath birliklari, xususan, sintaktik sath birliklari uchun ham bu termin qo'llanila boshlandi. Sintaktik neytrallashuv fonologik neytrallashuvdan farqli ravishda ikki xil ko'rinishga ega ekanligi tilshunos olim A.Nurmonov tomonidan ilgari surilgan. Bular: oppozitiv a'zolarining mazmunan bir xil bo'lib qolishi va bir oppozitsiyaning inkor a'zosi bilan ikkinchi oppozitsiya tasdiq a'zosining mazmunan bir xil bo'lib qolishidir [1].

Sintaktik sathda, xususan, sodda gap sathida darak, so'roq, buyruq gaplarning shakli va mazmuni o'rtasidagi zidlanish belgilarining yo'qolishi natijasida ham neytralizatsiya hodisasi yuz berishi haqida ma'lum izlanishlar mavjud [2]. Ma'lumki, qo'shma va sodda gaplar to'liq predikativlikka ega birliklar miqdoriga ko'ra farqlanadi, ya'ni sodda gapda bitta to'liq predikativlikka ega birlik, qo'shma gapda esa ikki va undan ortiq predikativ markaz mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, sodda va qo'shma gaplar denotativ voqea-propozitsiya ifodalashiga ko'ra ham o'zaro zidlanishga ega. Chunki mohiyatan sodda gaplar muayyan bir voqea ifodachisi sifatida, qo'shma gaplar esa ikki yoki undan ortiq voqealar o'rtasidagi munosabat ifodachisi sifatida mavjuddir [3]. Ma'lum nutqiy qo'llanishlarda sodda va qo'shma gaplar orasidagi zidlanishlar mo'tadillashishi mumkin.

Sodda va qo'shma gaplar orasidagi mo'tadillashuvni 2 turga ajratish mumkin:

1.Sodda gapning polipropozitiv xarakteriga ko'ra yuzaga keladigan mo'tadillashuv. Sodda gaplar ba'zan mazmunan murakkablashib, ikki va undan ortiq propozitsiya ifodalashga xizmat qiladi. Bunday holda qo'shma va sodda gap orasidagi propozitsiya ifodalash miqdoriga ko'ra zidlanish mo'tadillashadi. Masalan: *Hech nimaga hayron qolmaydigan odamdan olim chiqadi. Sham yonmasa, parvona yaqin kelmaydi.* (O.Hoshimov). Ushbu misolda birinchi gap sodda gap bo'lib, ikkita propozitsiya ifodalashga xizmat qilyapti, chunki sifatdosh o'ram gapni mazmunan murakkablashtirib, propozitsiya ifodalashga xizmat qilyapti. Ikkinchi gap esa qo'shma gap bo'lib, u ham ikkita propozitsiya ifodalashga xizmat qilyapti. Shu nutqiy qo'llanishda sodda va qo'shma gaplar propozitsiya ifodalashiga ko'ra zidlanish belgisini yo'qotib, neytralizatsiyaga uchraydi. Ikki ob'ektiv mazmun bir sintaktik shakl orqali ifodalanib, sodda va qo'shma gap o'rtasidagi mo'tadillashuvga sabab bo'ladi. Murakkab mazmunning murakkab shaklda emas, balki sodda shaklda ifodalanishi til vositalarini tejash tamoyilining tilda yaqqol namoyon bo'lish shakllaridan biridir. Tildagi ortiqchalik tamoyili esa qo'shma gaplarda sodda mazmunning ifodalanishiga olib keladi.

2.Qo'shma gapning monopropozitiv xarakteriga ko'ra yuzaga keladigan mo'tadillashuv. Bunday mo'tadillashuvda qo'shma gap ikki va undan ortiq emas, bitta propozitsiya ifodalashga xizmat qiladi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning biri denotativ voqea emas, modus ifodalashga xizmat qilishi natijasida gapda bitta propozitsiya ifodalanadi. Bunday holatni asosan ergashgan qo'shma gaplarda uchratamiz. Bunday nutqiy sharoitda bitta ob'ektiv mazmun ifodalayotgan qo'shma gap va sodda gap orasida mo'tadillashuv yuzaga keladi. Bunda ortiqchalik tamoyili asosida bosh yoki ergash gap propozitsiya emas, modus ifodachisiga aylanadi.



Ortiqchalik tamoyilining amal qilishi, ya'ni bosh gapning faqat modus voqea ifodalashiga olib keladigan holatlar gap tarkibidagi so'zlar ma'nosi bilan bog'liq. Ko'p hollarda bosh gapning egasi vazifasida *qizig'i, to'g'risi, ochig'i, quvonchlisi, yaxshisi, yomoni* kabi modallik, baho mazmuniga ega bo'lgan so'zlar kelganda, bosh gapdagi denotativ voqea modus «voqea» maqomini oladi, qo'shma gap faqat ergash gapda ifodalangan bir denotativ voqea ifodachisiga aylanadi [4]. Masalan: *Gapning qizig'i shundaki, xolam hamma gapdan xabardor ekan* (O'.Hoshimov) gapida bosh gapda *qizig'i*–modal ma'no ifodalaydigan so'z ega vazifasida kelgan, natijada bosh gap orqali faqat modus voqea o'z ifodasini topgan. Asosiy axborot esa (*xolam hamma gapdan xabardor ekan*) ergash gap orqali ifodalangan. Demak, qo'shma gapda ikkita emas, bitta propozitsiya ifodalanib, sodda gap bilan bo'lgan zidlanish mo'tadillashgan.

Mo'tadillashuvga olib kelayotgan turli asoslar mavjud. Bunday holatni bosh gapning kesimi vazifasida bilmoq, ko'rmoq, aytmoq, ta'kidlamoq, esda tutmoq, esdan chiqarmoq, payqamoq, ishonmoq, qo'rqmoq, fahmlamoq, tushunmoq, ogoh bo'lmoq, o'ylamoq, sezmoq, qaror qilmoq, aniqlamoq, tan bermoq, his etmoq, mo'ljallamoq, shubhalanmoq kabi his-sezgi, idrok, nutqiy va fikriy faoliyatni bildiruvchi so'zlar kelganda ham kuzatish mumkin. Bunday ma'nolar modus «voqea» ifodasi uchun juda muvofiq keladi [5]. Masalan: Ona shuni sezdi, o'g'li faqat qornini o'ylardi (S.Ahmad) gapida kesim vazifasida sezdi–modus ifodalashga xoslangan so'z kelgan bo'lib, bosh gapni yaxlitligicha kirish so'z shaklida ham qo'llash mumkin: Ona shuni sezdi–Onaning sezishicha. Bundan ko'rish mumkinki, ta'kid ma'nosini kuchaytirish maqsadida alohida gap sifatida shakllangan bosh gap hosil bo'lgan. Ma'lumki, modus ifodalovchi tizim ixchamlashishga moyil bo'ladi.

Ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va o'rin ergash gapli qo'shma gaplarda sodda gaplarda ham ifodalanishi mumkin bo'lgan oddiy mazmun murakkab shaklda–polipredikativ qurilmalarda beriladi. Masalan: *Shunisi aniqki, qalbi pok kishining ishlari ham pok bo'ladi*. (“Durdonalar xazinasini”). Qo'shma gapning bosh gapi (*Shunisi aniqki*) orqali modus, ergash gapi (*qalbi pok kishining ishlari ham pok bo'ladi*) orqali esa asosiy denotativ voqea ifodalangan. Ushbu ergash gapli qo'shma gap orqali ifodalangan diktumni *Qalbi pok kishilarning ishlari ham pok bo'lishi aniq* tarzidagi sodda gap bilan ham ifodalash mumkin. Bu o'zaro ma'nodosh bo'lgan gaplarning mantiqiy asosi farq qilmaydi. Denotativ asosi mushtarak bo'lgan mazkur gaplarning faqat ifoda jihatida o'zgarish ro'y bergan. Bu qo'shma gapda mazmun va shakl jihatidan nomutanosiblikni–asimetriyani keltirib chiqargan. Qo'shma gap va sodda gapdagi zidlanish shu holatda mo'tadillashdi.

Tilda semantik-sintaktik nomutanosiblikning yuzaga kelishi tildagi doimiy ikki tamoyilning–ortiqchalik va til vositalarini tejash tamoyillarining u yoki bu shaklda namoyon bo'lishidan iborat [6]. Tildagi ortiqchalik tamoyilining qarama-qarshi qutbi til vositalarini tejash tamoyili bo'lib, sodda gaplardagi semantik-sintaktik nomuvofiqlik, asosan, ana shu printsip asosida yuzaga keladi. Murakkab mazmunning murakkab shaklda emas, balki sodda shaklda ifodalanishi til vositalarini tejash tamoyilining tilda yaqqol namoyon bo'lish shakllaridan biridir. Tildagi ortiqchalik tamoyili esa qo'shma gaplarda sodda mazmunning ifodalanishiga olib keladi.

Ergashgan qo'shma gaplar shakl va mazmun birligidan tashkil topgan butunlik bo'lib, bu birlik qo'shma gapda semantik jihatdan qiymatga ega bo'lmagan nisbiy so'zlarning qo'llanishi natijasida buziladi. Ma'lumki, ergashgan qo'shma gaplarda havola bo'laklar–nisbiy bo'laklar faol qo'llanadi. Bu so'zlar semantik qiymatga ega bo'lmay, ergash gaplar tomonidan izohlanadi.

Til birliklari qurilishida ikki xil tamoyilni kuzatish mumkin, ya'ni tejamlilik va ortiqchalik tamoyillari. Tejamlilik tamoyili sodda gaplarda ham, qo'shma gaplarda ham kuzatilishi mumkin. Ortiqchalik tamoyili–til birliklarining mazmun xususiyatiga ega bo'lmasdan, faqat shakliy ifodaga ega bo'lib, gap qurilishida ishtirok etishidir. Tilshunoslikda ortiqchalik atamasi ikki xil talqinga ega: 1) matnda hech qanday semantik yuk olmagan, ya'ni biror vazifa bajarmagan til birligi; 2) adabiy me'yorga nisbatan olinib, shartli ifodalanadi, ya'ni mavjud semantikaning turli til birliklarida takrorlanib, ortiqcha ma'noga egalik qilishi. Ortiqcha deb hisoblangan ma'no fakultativ yoki tautologik xarakterda bo'lmay, ma'lum konnotativ, emotiv ma'no ifodalashga xoslangan bo'ladi. Ortiqchalik, birinchidan, til birliklarida doimiy o'ziga xoslik sifatida, ikkinchidan, uslubiy ortiqchalik sifatida tushuniladi [7].

Ortiqchalik tamoyili ikki xil: a) leksik ortiqchalik; b) grammatik ortiqchalik. Leksik ortiqchalik ilmiy va so'zlashuv uslublarida ko'proq, rasmiy va badiiy uslubda kamroq kuzatiladi. Grammatik ortiqchalik tamoyili esa og'zaki shakldagi matnlarga nisbatan ko'proq yozma shakldagi matnlarda uchraydi.

Grammatik ortiqchalik sodda gapda ham qo'shma gapda ham kuzatiladi. Sodda gaplar qurilishiga xos ortiqchalik bilan qo'shma gaplarga xos ortiqchalik ortiqchallikni yuzaga keltiruvchi ba'zi omillarning mushtarakligi xususiyatiga ko'ra o'xshash bo'lsa-da, ular ko'p hollarda farq ham qiladi. Sodda gaplarga xos ortiqchalik, ko'pincha, gap sintaktik tuzilishida asemantik shakliy lug'aviy birliklar hisobiga vujudga keladi. Asemantik shakliy birliklar vazifasini, odatda, pronominalizatsiya (olmoshlashish) jarayonini boshdan kechirayotgan lug'aviy birliklar bajaradi. Masalan, *Ko'p o'qigan kishi ko'p biladi* gapida *kishi* so'zi ortiqcha. Shu bois mazkur jumlani *Ko'p o'qigan ko'p biladi* tarzida o'zgartirish mumkin bo'laveradi–gapning shakliy tomoni ixchamlashadi, lekin uning semantik hamda sintaktik qurilishida o'zgarish yuz bermaydi. [8].

Ortiqchalik tamoyili qo'shma gaplar doirasida faol amal qiladi. Darhaqiqat, *Mehribon kishini hamma hurmat qiladi* gapining sintaktik qurilmasi orqali ifodalanishi lozim bo'lgan ma'no *Kimki mehribon bo'lsa, uni hamma hurmat qiladi* gapining shakliy qurilmasi orqali ifodalangan. Ushbu qo'shma gapning sodda gapdan farqi shundaki, qo'shma gapda birinchi gapga nisbatan ta'kid, ajratib ko'rsatish ma'nosi kuchliroq. Muhimi yana shundaki, ortiqchalik belgisiga ega bo'lgan keyingi qurilma ham til sintaktik sistemasida muhim va ahamiyatli hodisalardan biri sifatida tavsiflanadi.

Ergashgan qo'shma gaplarda yuzaga keladigan nomuvofiqlikning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Propozitsiya hisobiga yuzaga keladigan nomuvofiqlik. Propozitsiya hisobiga yuzaga keladigan nomuvofiqlik ikkita sodda gapdan tuzilgan qo'shma gapning bitta propozitsiyani ifodalashi natijasida kelib chiqadi. Bunda ortiqchalik tamoyili asosida bosh yoki ergash gap propozitsiya emas, modus ifodachisiga aylanadi.

Ortiqchalik tamoyilining amal qilishi, ya'ni bosh gapning faqat modus voqea ifodalashiga olib keladigan holatlar gap tarkibidagi so'zlar ma'nosi bilan bog'liq. Ko'p hollarda bosh gapning egasi vazifasida *qizig'i, to'g'risi, ochig'i, quvonchlisi, yaxshisi, yomoni* kabi modallik, baho mazmuniga ega bo'lgan so'zlar kelganda, bosh gapdagi denotativ voqea modus «voqea» maqomini oladi, qo'shma gap faqat ergash gapda ifodalangan bir denotativ voqea ifodachisiga aylanadi [9]. Masalan: *Gapning qizig'i shundaki, xolam hamma gapdan xabardor ekan* (O'.Hoshimov) gapida bosh gapda *qizig'i*–modal ma'no ifodalaydigan so'z ega vazifasida kelgan, natijada bosh gap orqali faqat modus voqea o'z ifodasini topgan. Asosiy axborot esa (*hamma gapdan xabardor ekan*) ergash gap orqali ifodalangan.

Bunday holatni bosh gapning kesimi vazifasida bilmoq, ko'rmoq, aytmoq, ta'kidlamoq, esda tutmoq, esdan chiqarmoq, payqamoq, ishonmoq, qo'rqmoq, fahmlamoq, tushunmoq, ogoh bo'lmoq, o'ylamoq, sezmoq, qaror qilmoq, aniqlamoq, tan bermoq, his etmoq, mo'ljallamoq, shubhalanmoq kabi his-sezgi, idrok, nutqiy va fikriy faoliyatni bildiruvchi so'zlar kelganda ham kuzatish mumkin. Bunday ma'nolar modus «voqea» ifodasi uchun juda muvofiq keladi [10]. Masalan: *Ona shuni sezdi, o'g'li faqat qornini o'ylardi* (S.Ahmad) gapida kesim vazifasida sezdi–modus ifodalashga xoslangan so'z kelgan bo'lib, bosh gapni yaxlitligicha kirish so'z shaklida ham qo'llash mumkin: *Ona shuni sezdi*–Onaning sezishicha. Bundan ko'rish mumkinki, ta'kid ma'nosini kuchaytirish maqsadida alohida gap sifatida shakllangan bosh gap hosil bo'lgan. Bunday holatlarni badiiy asarlarda ko'pgina uchratish mumkin.

Nisbiy so'zlar sintaktik maqomi bilan yuzaga keladigan nomuvofiqlik. Bu nomuvofiqlik asosan bosh va ergash gapda savol-javob shaklida keladigan nisbiy so'zli – ikki havola bo'lakli qo'shma gaplarda kuzatiladi. Bosh va ergash gaplardagi havola bo'laklar bir xil sintaktik vazifa bajarsa, havola bo'laklar bir-biriga muvofiq, har xil sintaktik vazifada kelsa, nomuvofiq holat yuzaga keladi. Masalan: *Kimki buyuklikka erishishni istasa, u o'zini chegaralay bilmog'i lozim* gapida *kimki*–*u* havola bo'laklarining har ikkalasi ham bir xil–ega vazifasida kelgan. Demak, bu gapda havola bo'laklar muvofiq holda qo'llangan. Ba'zan buning aksini ko'ramiz: *Kimki xushmuomala bo'lsa, uning yaqinlari ko'p bo'ladi* gapida *kimki*–*uning* havola bo'laklari bir-biriga nomuvofiq, chunki ergash gapdagi havola bo'lak *kimki*–*ega*, bosh gapdagi havola bo'lak *uning*–*aniqlovchi* vazifasini bajargan. Ushbu gapdagi propozitsiya quyidagicha: *Xushmuomala odamning yaqinlari ko'p bo'ladi*. Demak, yuqoridagi gapda ikki tomonlama: ham shakl va mazmun, ham havola bo'laklar nomuvofiqligi yuzaga kelgan. Qo'shma gap ikkita predikativ munosabatdan iborat bo'lsa-da, unda bitta denotativ voqea o'z ifodasini topgan, ortiqchalik tamoyili asosida ta'kid, ifodalilik ma'nolari yanada kuchaygan. Aytish lozimki, lisoniy ortiqchalik tildagi ortiqcha yuk emas, balki til taraqqiyoti, til evolyutsiyasi uchun xizmat qiladigan zaruriy omillardan biridir. Bu tamoyil axborotni aniq va to'liq ifodalash, uning yanglish tushunilishiga imkon bermaslik kabi natijalardan tashqari tasviriylik va ifodalilik uchun xizmat qiladi [11].

Bu holatni quyidagi gaplarda ham kuzatish mumkin: *Kimki o'z xalqiga xizmat qilsa, u bilan hamma faxrlanadi. (kimki – u bilan, ega - to'ldiruvchi). Kimning hunari bo'lsa, (u ) xazinaga egadir. (kimning–aniqlovchi, u - ega).*



Demak, birinchi holatda sodda gap bilan qo'shma gap zidlanishi tejamkorlik tamoyili natijasida, ikkinchi holatda esa ortiqchalik tamoyili asosida ro'y beradi. Ko'rinadiki, mo'tadillashuv hodisasi faqat fonologik sathdagina emas, balki barcha sathlarda amal qiluvchi universal hodisadir.

#### References:

1. Nurmonov A. Sintaktik konstruksiyalarda tasdiq va inkor oppozitsiyalarining neytrallashuvi / O'zbek tili va adabiyoti. №1. 47-51-b.
2. Nurmonova D. Sintaktik sathda neytralizatsiya hodisasi / O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. N:3.–Toshkent, 2009, 49-50-b.
3. Nurmonov A va b. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi.–Toshkent: Fan, 1992, 219-b.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. –Toshkent, 1995, 173-b.
5. Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya.–Toshkent, 1984, 181-b.
6. Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya.–Toshkent, 1984, 18-b.
7. Yusupova R. Hozirgi o'zbek poeziyasida lisoniy tejamkorlik va ortiqchalik (A.Oripov lirikasi misolida): filol. fan. nomz. avtoreferati.–Toshkent, 2011, 8-b.
8. Mamajonov A., Roziqova G. Gaplarning shakliy-mazmuniy tuzilishiga ko'ra turlari.–Farg'ona, 2004. 11-b.
9. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi.–Toshkent, 1995, 114-b.
10. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi.–Toshkent, 1995, 173-b.
11. Ibragimova F. Badiiy matnda ellipsis va antiellipsis: Filol. fan. nomz...diss.–Toshkent, 2011, 30-b.

**МУНДАРИЖА****ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ****01.00.00****ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ****PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES**

- 1 Visual c# da razryadli operatsiyalar.  
Temirov O.M..... 3
- 2 Java dasturlash tilida abstrakt sinflar  
Holmirzayev H.E..... 6
- 3 Ўнг томони номаълум ва коэффициенти узулишга эга бўлган биринчи тартибли  
чизиқли оддий дифференциал тенглама учун масалалар  
Тиллабаева Г.И..... 10
- 4 Matematika darslarida muammoli ta'lim  
Alixanov O.O..... 15
- 5 О некоторых задачах теории одномерной бифуркации  
Тухтасинов М,Кушақов Х.Ш ..... 20

**КИМЁ ФАНЛАРИ****02.00.00****ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ****CHEMICAL SCIENCES**

- 6 Карбоксиметилцеллюлоза: олиниши, айрим физик – кимёвий хоссалари,  
ишлатилиши (обзор)  
Сайпиев Т.С..... 27
- 7 N-vinilpirrolidon asosida suvda eruvchan sopolimerlar sintez qilish va ular  
makromolekulalarining kompozitsion tuzilishini o'rganish  
Toshmatov Y.R., Dexqonov R.S.,Boydedayev. A.A..... 39

**БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ****03.00.00****БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ****BIOLOGICAL SCIENCES**

- 8 Far1 Related Sequence (FRS) генлар оиласининг вакили frs10 гени g.hirsutum  
туридаги функцияси ринки технологияси ёрдамида ўрганиш.  
Усманов Д.Э, Буриев З.Т, Абдукаримов Ш.С, Собиров Б.М, Мухторов А. Т..... 46
- 9 Кўхитанг тизмаси флораси таркибидаги ziziphora l. туркуми турларининг  
биоэкологияси  
Ибрагимов А.Ж,Батошов А.Р,Каримов Б.А,Мирзаев С.И ..... 50

**ТЕХНИКА ФАНЛАРИ****05.00.00****ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ****TECHNICAL SCIENCES**

- 10 Интернет самарали коммуникация канали сифатида  
Бекназаров К.Т..... 54

**ТАРИХ ФАНЛАРИ****07.00.00****ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ****HISTORICAL SCIENCES**

11	XX asrning 60-80-yillarida namangan viloyati xalq ta'limi tizimi: muammolar va yutuqlar Mamasaidov L. P.....	60
<b>ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>		
<b>09.00.00 ФИЛОСОФИК ИЕ НАУКИ</b>		
<b>PHILOSOPHICAL SCIENCES</b>		
12	Tarixiy taraqqiyotda ayollarning o'rnini Mamatov O.V.....	64
13	Миллий байрамларда санъат турларининг ифодаси Шадиметова Г.М.....	67
14	Замонавий санъатларда янги эстетик мезонларнинг вужудга келиши Кадирова Д.С.....	72
15	Мақом куйларининг фалсафий-эстетик моҳияти Нуруллаева З.С.....	78
16	Ахборот медиамаданияти трансформацияси ва глобаллашуви Кодиров Н.М.....	83
17	Ренессанс даври мутафаккирлари оилавий муносабатларда поклик ва гўзаллик ҳақида Хандамова М.....	93
18	Полифункционаллик халқ қабулхоналарининг ўзига хос хусусияти сифатида Айтбоев М.Ю.....	99
19	Оиланинг жамиятдаги роли ва ижтимоий функциялари Абдуллаева Н.....	103
20	Инновация фалсафасининг ижтимоий функционал хусусиятлари Ходжаев С.Б.....	108
21	Боҳарзий ва унинг вақф ерлари Норова М.Ф.....	113
22	Туркистон “Янги усул” мактабларида таълим жараёнининг ташкил этилиши ва ундаги гендер муаммолари Намазова Ю.М.....	121
23	Аҳмад Заки Валидийнинг тарих фалсафаси Хужаев М.И.....	126
<b>ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>		
<b>10.00.00 ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ</b>		
<b>PHILOLOGICAL SCIENCES</b>		
24	The Role of stylistics in linguistics and literature Umrzaqov I. I.....	133
25	Девону Луғотит Турк” асарида қўлланган шахс номлари гуруҳига оид лексемаларнинг семантик хусусиятлари Розикова Г.З.....	136
26	О'zbek tiliga o'zlashgan arabcha leksemalar va ularning badiiy asarlarda qo'llanilishi Rahmatullayev.Y.....	142
27	Замонавий таълим тизимида касбий компетентликни модуллаштиришмоҳияти	

Абдиева С.М.....	146
28 Qo'shma gaplarda shakl va mazmun Ahmedova N.Sh.....	151
29 Краткий обзор по историю изучения терминов родства в узбекских и английских языках Каримова В.....	156
30 O'zbek adabiy tili uslublarining shakllanishi Vabaxanova D.A.....	163
31 Йўл мотиви ҳақида Қўчқаров О.....	169
32 Жаҳон тилшунослигида диний функционал услубнинг ўрганилиши Юсупова Ш.Т.....	173
33 Жек лондоннинг исёнчи асаридаги воқеаликни тасвирлаш хусусиятлари Najmiddinov J, Bahodirov A.....	179
34 Johann Wolfgang Gytoring "Yosh Verterning iztiroblari" romanida poetonimlar talqini Vozorova R.Sh.....	182
35 "Алпомиш" библионими ва бош тимсол исми, лақаби хусусида Улуқов Н, Юнусова Б.....	186
36 Наманган қипчоқ шевалари ва этнослараро жараёнлар Дарвишов И.Ў.....	190
37 Grammatik ko'rsatkichlarning o'zlashtirilishida aniqlik darajasi (O'zbek tilini o'rganayotgan koreyslar misolida) Saidaxmedova O.I.....	197
38 Перевод понятий означающие национальных конвенций, традиций и обряд Самандаров . Ш.С.....	202
39 Принцип вежливости в речевом общении. Саидова М.Ш, Холматова Г.И.....	205
40 Адабиёт ва прагматика Раҳимов У.Э, Махаммаджлонов Н.Д.....	209
41 Хикматли сўзлар таржимасида қофияни сақлаш Абдуллажанов А, Мамадалиев Э.....	214
<b>ГЕОГРАФИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<b>11.00.00 ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАУКИ</b>	
<b>GEOGRAPHICAL SCIENCES</b>	
42 Фарғона водийси дарёлари оқимининг иқлим илишига реакцияси Солиев И.Р., Ғулломжонов Д.....	219
<b>ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<b>13.00.00 ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ</b>	
<b>PEDAGOGICAL SCIENCES</b>	
43 Готовность будищих педогогов как основной фактор успешности инклюзивного образования Сатторов М, А.....	225

44	Педагогик стратегия - олий таълим муассасаси битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантиришнинг концептуал асоси Эргашев Б.Б.....	229
45	Таълимда ахборот коммуникацион технологияларидан фойдаланиш афзалликлари Ниязова Н.А.....	234
46	Олий таълим муассасалари ўқув-тарбия жараёнида фанларичра ва фанлараро интеграциясини таъминлашнинг педагогик-психологик масалалари Жуманов А.А.....	237
47	Мактабгача таълим ташкилотларини инновацион ривожлантириш муаммолари Абдуназарова Н.Ф, Хамдамова М.Т, Парманов Ж.А.....	242
48	Физика ўқитувчиларининг таълимга инновацион ёндашуви Бекназаров З.Ф.....	245
49	Тухника йўналишиндаги мутахассис компетентлигининг модели Даминов О.О.....	250
50	Олий таълим муассасаларида замонавий инновацион технологияларини қўллашнинг ўзига хослиги ва хусусиятлари Исмаилова З.К, Химматалиев Д.О.....	257
51	To actual directions of development of export of fruit and vegetable products in Uzbekistan Avulchaeva F.....	261
52	The significance of cultural awareness in second language learners' classroom Umirzakova D.A.....	264
53	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish yo'llari Jo'rayeva T.U, Shamirova Y.K .....	268
54	Role of peer observation in foreign language teaching Jalolov Sherali, Botirova Z.X.....	274
55	Ingliz tilni o'rgatishda mnemonik usullardan foydalanish Yunusova Y.B.....	278
56	Талаба ёшлар соғлом турмуш тарзини шакллантириш масаласига қадрият сифатида қарашни тарбиялаш муаммолари Назаров А.Т.....	281
57	“Олий таълим муассасалари ўқув–жисмоний машғулотлар жараёнини ташкиллаштиришда blended learning концепциясидан фойдаланиш орқали таълим сифатини ошириш” Махкамов А.Ю.....	284
58	Ўқувчиларнинг геометриядан ўқув фаолиятини фузионизм ғояси асосида такомиллаштириш йўллари Ғойибназарова Г.Н, Джураева Ш.К.....	288
59	Мактабгача таълим муассасаларини сифат жиҳатдан такомиллаштириш Ибрагимова Г.Н.....	293
60	8-синф физика курсининг “электр заряд. электр майдон” бобини ўқитиш Зоҳидов И.О, Каримова Р.К, Умаров А.О.....	298



61	Таркибида сирт фаол модда тутган учқарбамид хлорат натрий дефолиантини олиш жараёнини ўрганиш Умиров Ф.Э, Худойбердиев Ф.И, Номозова Г.Р, Закиров Б.С.....	303
62	Ижтимоий-эмоционал кўникмалар шаклланишининг педагогик-психологик омиллари Раҳимова М.А.....	311
63	Ҳамкорлик педагогикасининг узлуксиз таълим тизимидаги инсонпарварлашув хусусиятлари Ўринова Ф.Ў, Усмонова Ш.Ё.....	317
64	Чақириққача ҳарбий таълим бўйича мутахассисларни шакллантиришнинг долзарб масалалари Хасанов А.Т, Юсупов Т.Т.....	323
65	Мобиллик-олий педагогик таълимни модернизация қилиш сифатида Эшназарова М.Ю.....	327
66	Бўлажак меҳнат таълими ўқитувчиларида касбий муҳим сифатларни шакллантириш педагогик жиҳатлари Қодиров М.М.....	332
67	Бошланғич таълимда прагматик ёндашув асосида матн ўқишнинг ўзига хос хусусиятлари Йўлдашева Д, Буважонова М.....	338
68	Бошланғич таълимда интеграциялашган ўқитишнинг аҳамияти Рустамова Д.....	341
69	Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларни нутқ маданиятини шакллантиришда китоб ва унинг аҳамияти Ўринова Ф, Сидикова З.....	344
70	Технология использование метода кейс-стади при изучении компьютерной графики. Отабаева Ф.Т.....	348
71	Pedagogik tajribalarni to'plash va ommalashtirish tizimi Mo'minova G, Insarova G,.....	355
72	Талабаларнинг мустақил таълим фаолиятини ривожлантириш- ўқув жараёнининг асоси Мўминов З.О.....	359
73	Innovatsiya ta'limning muhim elementidir. Madaminov F.Sh.....	367
74	Intellectual kompyuter o'yinlari yordamida individual matematik ta'limni yo'lga qo'yish Najmiddinova . N.Y.....	373
75	Футболчиларни эмоционал ҳолатларини аниқлашнинг методик хусусиятлари Сатиев Ш.К .....	378
76	Бўлажак ўқитувчиларнинг мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш моделини такомиллаштириш. Қамбаров М.М .....	384

77	Содержание и структура учебников по методике обучения языкам Габдулхаков, Фарид Ахунович.....	391
	<b>ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b> <b>ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ</b> <b>PSYCHOLOGICAL SCIENCES</b>	
	<b>19.00.00</b>	
78	Оилада болаларнинг ижтимоий- ахлоқий сифатларини шакллантириш омиллари Ортиқова З.Н.....	395
	<b>СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b> <b>СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ</b> <b>SOCIOLOGICAL SCIENCES</b>	
	<b>22.00.00</b>	
79	Маънавий тарбия ва тарихий онг Махкамов Қ.О.....	398